




# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo aylanmasi **3164,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **17,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **614,1** mlrd. so'mni (**95,2 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **971,9** mlrd. so'mni (**5,8 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1578,6** mlrd. so'mni (**8,8 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





### UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3164,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **17,9** % ga oshdi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **80,6** % va yirik korxonalar hissasiga **19,4** % to'g'ri keldi.



### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Baxmal **22,2** % ulush bilan **705,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




### ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **0,8** % ulush bilan **28,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
2021- yil Yanvar-aprel		
2022- yil Yanvar-aprel		

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, **2550,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,6 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (96,8 %), Forish (99,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarmlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	3164,7	117,9	614,1	195,2	2550,6	107,7
Jizzax sh.	772,7	108,5	77,5	97,0	695,1	110,0
tumanlar:						
Arnasoy	58,5	103,6	0,7	105,5	57,8	103,6
Baxmal	705,2	172,3	488,0	241,3	217,2	104,9
G'allaorol	214,4	110,7	6,8	145,7	207,6	109,9
Sharof Rashidov	435,7	106,0	0,7	102,3	435,0	106,0
Do'stlik	101,9	115,5	2,5	84,8	99,4	116,6
Zomin	398,4	104,0	32,0	259,5	366,5	98,8
Zarbdor	107,5	119,4	0,7	29,2	106,8	121,9
Mirzacho'l	79,2	118,4	0,5	27,9	78,6	121,2
Zafarobod	43,0	103,7	0,7	93,0	42,3	103,9
Paxtakor	122,4	107,9	2,8	84,8	119,6	108,6
Forish	97,8	107,2	0,7	32,8	97,1	109,0
Yangiobod	28,1	104,1	0,4	82,1	27,6	104,6

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **95,2 %** ga oshdi va **614,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2550,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **5,8 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,5 %), G'allaorol (96,8 %), Forish (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 19,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (10,0 %), Zomin (8,0 %), Baxmal (69,2 %) va Do'stlik (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.






**JIZZAX VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022-yil yanvar-aprel oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2187,1** ming so‘m (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **115,2** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlarida o‘shish sur‘atlari kuzatildi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**4118,7** ming so‘m), Baxmal (**4313,3** ming so‘m), Zomin (**2319,0** ming so‘m) va Sharof Rashidov (**1884,6** ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




	Hajm, ming so‘m	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	2 187,1	115,2
Jizzax sh.	4 118,7	104,7
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1 233,8	101,9
Baxmal	4 313,3	168,3
G'allaorol	1 194,6	108,2
Sharof Rashidov	1 884,6	104,1
Do‘stlik	1 502,4	113,5
Zomin	2 319,0	101,3
Zarbdor	1 186,3	116,5
Mirzacho‘l	1 477,0	116,4
Zafarobod	831,4	101,5
Paxtakor	1 575,4	105,2
Forish	1 024,3	105,4
Yangiobo	964,0	102,3



**Asosiy tarkib, foizda**




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **563,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **17,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **252,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,8 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **311,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **20,0%** ga oshdi) .





**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



6,4 mlrd.  
so'm

**Tuzlamalar**



78,1  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



12,7  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

25,6  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



12,3  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

18,7  
mlrd. so'm



**Tuxum**

27,1  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

43,4  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

1,6  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2022-yilning yanvar-aprel oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 252,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (78,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

8,2  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

18,0  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **311,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **205,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **99,1** mlrd. so'mni, otlar **10,8** mlrd. so'mni, parrandalar **1,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **49,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,3 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	49 850,4	104,3	49850,4	108,4
Jizzax sh.	23 554,6	100,8	23554,6	104,8
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	350,0	102,2	350,0	106,2
Baxmal	1 007,5	111,3	1007,5	115,8
G‘allaorol	3 087,0	105,2	3087,0	109,3
Sh. Rashidov	9 142,4	107,8	9142,4	112,1
Do‘stlik	1 824,9	111,8	1824,9	116,3
Zomin	3 680,6	111,6	3680,6	116,1
Zarbdor	1 554,2	104,8	1554,2	109,0
Mirzacho‘l	1 983,6	106,0	1983,6	110,2
Zafarobod	482,6	111,4	482,6	115,8
Paxtakor	1 640,1	105,1	1640,1	109,2
Forish	1 246,9	103,2	1246,9	107,3
Yangiobod	295,9	101,0	295,9	105,0



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **746,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **8,6 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **123,6** mlrd. so'mni (**3,7 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **622,8** mlrd. so'mni (**11,5 %** ga oshdi) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Baxmal ( 130,4%) va Do'stlik (205,1 %) tumanlarida kuzatildi.



**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	746,4	108,6	123,6	96,3	622,8	111,5
Jizzax sh.	386,9	98,1	33,7	42,0	353,2	112,5
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	2,3	178,1	0,02	77,0	2,2	180,1
Baxmal	78,2	130,4	60,48	128,2	17,7	138,7
G'allaorol	21,9	113,2	0,08	89,2	21,8	113,3
Sh. Rashidov	48,6	111,1	0,15	307,8	48,4	110,9
Do'stlik	68,2	205,1	28,65	38204,6	39,6	119,3
Zomin	71,7	99,3	0,01	84,2	71,7	99,3
Zarbdor	11,8	129,0	0,01	61,3	11,8	129,0
Mirzacho'l	2,6	146,7	0,06	144,3	2,6	146,8
Zafarobod	5,5	112,2	0,01	4,9	5,5	114,5
Paxtakor	8,4	124,0	0,20	173,1	8,2	123,1
Forish	36,8	99,8	0,18	77,2	36,6	99,9
Yangiobod	3,5	102,1	0,01	38,9	3,5	102,6



## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, **622,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **11,5** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,7** %), G'allaorol (**99,7** %), Forish (**99,6** %), Sharof Rashidov (**99,7** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26